

EMIL DYURKGEYMNING ANOMIYA NAZARIYASI HAQIDA



Akramov Xasan Furkatovich

Kriminologiya tadqiqot instituti yetakchi ilmiy xodimi
sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya. Ushbu maqolada Emil Dyurkgeymning “Anomiya” nazariyasi haqida so'z yuritiladi. Unda anomiyaning shakllanishi va tahliliy xususiyatlari o'rganiladi. Anomiya tushunchasining ilmiy jihatdan tahlili hozirgi kunda ham dolzarbligi bilan o'ziga kriminolog olimlarni jalb etmoqda. Maqolada anomiya turlari va ko'rinishlari haqida so'z yuritilib, ularning ilmiy xususiyatlari keltirilgan. Olim tomonidan keltirilgan “Anomiya” haqidagi ta'riflar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Anomiya, ijtimoiy tizim, sotsiologizm, pozitivizm, obyektivizm, ijtimoiy fakt, o'z joniga qasd qilishi.

О ТЕОРИИ “АНОМИЯ” ЭМИЛЯ ДЮРКГЕЙМА

Аннотация. В данной статье рассматривается теория “Аномия” Эмиля Дюркгейма, посвященная изучению формирования и аналитических свойств этого процесса. Основанная на научном анализе понятия аномии, данная теория привлекает к себе ученых-криминологов своей актуальностью и сегодня. В статье рассматриваются виды и проявления аномий и приводятся их научные характеристики, проанализированы определения “Аномии”, приведенные ученым.

Ключевые слова: аномия, социальная система, социологизм, позитивизм, объективизм, социальный факт, самоубийство.

ON THE THEORY OF “ANOMIE” BY EMILE DURKHEIM

Abstract: This article discusses the theory of “Anomie” by Emile Durkheim, devoted to the study of the formation and analytical properties of this process. Based on the scientific analysis of the concept of anomie, it attracts criminologists with its relevance today. The article discusses the types and manifestations of anemia and provides their scientific characteristics. The article analyzes the definitions of “Anomie” given by the scientist.

Keywords: anomie, social system, sociology, positivism, objectivism, social fact, suicide

Taniqli fransuz faylasufi va sotsiologi Emil Dyurkgeym (1858–1917) nafaqat G.Tard bilan, balki deviantlikning biologik va antropologik nazariyalari, psixologik reduksionizm tushunchalari, utilitarizm va klerikal qarashlar tarafdorlari bilan ham munozaralarda mutafakkir sifatida rivojlandi. Sotsiolog sifatida u faqat o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan ijtimoiy voqelikni o'rganishga intildi. Bunday ijtimoiy voqelikning obyektiv elementlari sifatida Dyurkgeym ijtimoiy faktlarni ko'rib chiqishni taklif

qildi. “Ijtimoiy fakt – bu har qanday harakat uslubi keskin aniqlanganmi yoki yo'qmi, lekin shaxsga tashqi bosim o'tkazishga qodir... Shu bilan birga uning individual namoyon bo'lishi mustaqil ravishda o'z mavjudligiga ega” [1; 19-b.].

Dyurkgeym ijtimoiy hayotning ajralmas tamoyillarini izlash bilan birga, jamiyatni ijtimoiy faktlardan tashkil topgan “*sui generis*” tizimi sifatida angladi. Uning mahsuloti ham me'yoriy, ham deviant xulq-atvori bilan individual shaxsga borib taqalishini keltirib o'tdi.

Dyurkgeym sotsio-tsentrlik qarashlarining tahlili sifatida, ularga xos bo'lgan ikkita yo'nalishni ajratib ko'rsatish mumkin. Ulardan birinchisi – naturalizm bo'lib, jamiyat va uning qonunlarini tabiat bilan o'xshashligi hamda uning tabiiy qonunlarini tushunishdan iborat va ma'rifat davrining mafkuraviy merosi bilan bog'liq. Ikkinchisi – ijtimoiy realizm, bu jamiyatni jismoniy, biologik va psixologik jihatdan bir-biridan farq qiladigan maxsus ijtimoiy voqelikdir.

Dyurkgeym shu asosda o'zining “sotsiologizm” sotsiosentrik konsepsiyasini rivojlantirdi. Sotsiologizm, jamiyatning individual sotsiologik nazariyalaridan farqli o'laroq, ijtimoiy voqelikning o'ziga xosligi va avtonomiyasi prinsipini “narsalar” deb ta'kidlaydi. Bundan tashqari, Dyurkgeym uning shaxslarga nisbatan ustunligi, ularga nisbatan tashqi xarakterini ta'riflaydi. Metodologik nuqtayi nazardan, sotsiologizm nazariyasi pozitivizm, obyektivizm va tushuntirish tamoyillariga kuchli tayanish bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy faktlar g'oyasi, sotsiologizm nazariyasi va pozitivistik metodologiyani qo'llash asosida deviant xulq-atvor sotsiologiyasi predmetining sotsiologik tushunchasi hamda ko'p jihatdan E.Dyurkgeymning zamonaviy qarashlari anomiya nazariyasini yaratishda o'z joniga qasd qilish, jinoyatchilikning fundamental nazariy va empirik tadqiqotlarida yaqqol namoyon bo'ldi.

Dyurkgeym “anomiya” atamasini birinchi marta “Ijtimoiy mehnatni taqsimlash to'g'risida” (1893) doktorlik dissertatsiyasida qo'llaydi. Bunda dastlab, uni mehnat taqsimotining g'ayritabiiy shakllaridan biri sifatida izohlaydi. Uning fikriga ko'ra, sanoat inqirozlari, mehnat va kapital o'rtasidagi ziddiyatlar hamda mehnatning tobora kuchayib borayotgan ixtisoslashuvi natijasida yuzaga keladigan funksiyalarning integratsiyasi yoki o'zaro moslashuvining yo'qligi (yoki yetishmasligi) deb ta'riflanadi. Anomiya mehnat taqsimoti uning ishtirokchilari o'rtasida yetarlicha samarali aloqalarni va ijtimoiy munosabatlarni ma'lum darajada tartibga solishni ishlab chiqara olmasligi sababli yuzaga keladi [2; 293-b.].

Olim o'zining “O'z joniga qasd qilish” kitobida (1897), o'z joniga qasd qilishning empirik ma-

lumotlarini nazariylashtirish va tahlil qilish asosini tushuntirib, anomiyaga aniqroq ta'rif beradi. Dyurkgeym anomiya deganda jamiyatning shunday holatini tushunadiki, unda shaxslarning xatti-harakatlarini aniq, izchil tartibga solishning imkoni yo'q, agar eski normalar va qadriyatlar endi haqiqiy munosabatlarga mos kelmasa yoki yangilari hali o'rnatilmagan bo'lsa, me'yoriy vakuum hosil bo'ladi [3; 3-b.]. Dyurkgeymning fikriga ko'ra, anomiya iqtisodiy qulash yoki ijtimoiy hayotning gullab-yashnashi mumkin bo'lgan ijtimoiy o'zgarishlardan kelib chiqadi. Bunday o'zgarishlar jamiyat birligining yo'q qilinishiga yoki uning qismlari izolyatsiyasining o'sishiga olib kelishi mumkin. Natijada, jamiyat anonim bo'lib qoladi.

O'z joniga qasd qilish faktologiyasini o'rganish uchun Dyurkgeym, G.Tard singari, A.Kette statistik usulidan foydalanadi. Biroq, Dyurkgeymning “anomiya” tushunchasi aynan uning sotsiologizm nazariyasi – jamiyat haqidagi “Shaxslar va ularning harakatlari ustidan nazoratni amalga oshiradigan maxsus haqiqat” tushunchalari doirasida o'rganadi [1].

Dyurkgeym o'z tadqiqotlarida jinoyatchilik va boshqa og'ishlar muammosini o'rganib chiqadi. Uni birinchi sotsiologlardan bo'lib, ijtimoiy faktlar kontekstida shaxslarning har qanday ichki, biologik va psixologik holatlarini kuzatish bilan davom ettiradi. Shundan kelib chiqib, Dyurkgeymga o'z joniga qasd qilish muammosi “aniq kiritilgan faktlar guruhi” sifatida taqdim etiladi [3; 3-b.]. Agar u odamlarning xatti-harakatlarini boshqaradigan ijtimoiy sabablarga ko'ra og'ish manbalarini aniqlasa, uning og'ishlarni tushuntirishi sotsiotsentrik hisoblanadi. Bundan tashqari, u o'z joniga qasd qilishni individual psixologik sabablar bilan izohlashni qat'iy rad etadi. “O'z joniga qasd qilish, asosan, shaxsning ichki xususiyatlariga emas, balki insonlarni boshqaradigan tashqi sabablarga bog'liqdir” – deydi E. Dyurkgeym [3; 3-b.].

Olimning sotsiosentrik yondashuvi ko'p omilli bo'lib, deviantlikni tahlil qilishni murakkablashtirib, og'ishlarning ijtimoiy sabablari va shartlarining ko'pligi masalasiga murojaat qiladi. Kerakli omillardan tashqari, tadqiqotchi deviant xatti-

harakatlarning ikkilamchi sabablarini yoki cheklovchi shartlarini aniqlashga intiladi. Shu bilan birga, ushbu murakkab hodisaning paydo bo'lishi va rivojlanishini tavsiflovchi sababiy munosabatlarning noaniqligi va ko'p qirrali ekanligiga e'tibor qaratadi. Jamiyatni shaxslarni birlashtirish vositasi sifatida o'rganib chiqib, o'z joniga qasd qilishning etiologik tipologiyasini ochib beradi hamda uning inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar mezonini tabiat ekanligini tushuntiradi. Ushbu jarayonga shaxslarning birlashishi yoki jamiyatdagi munosabatlari va ularni tartibga solish darajasi sifatida qaraydi. U o'z joniga qasd qilishning ikki juft qutbli turini aniqlaydi. Tadqiqotchining fikriga ko'ra, jamiyatdagi shaxslarning birdamlik darajasi zaiflashishi bilanoq, "xudbinlik" yani o'z joniga qasd qilishga olib keladi (shaxsda hayotning ma'nosi yo'qolgan bo'ladi). Ayrim hollarda esa, aksincha, haddan tashqari fidoyilik ham "altruistik" (hayotining ma'nosi boshqalar hayoti bilan bog'lanmaganda, o'zlarini keraksiz insondek his etishlari oqibatida) o'z joniga qasd qilish holatlari yuzaga keladi. Boshqa tomondan, ijtimoiy munosabatlarni haddan tashqari tartibga solish "fatalistik" o'z joniga qasd qilish holatlariga, uning yetishmasligi yoki umuman yo'qligi esa "anomiya"ga olib keladi.

Ko'rib turganimizdek, o'z joniga qasd qilishning "xudbinlik" va "g'ayritabiiylik" turlarini aniqlash omillari olimning fikriga ko'ra, insonning shaxsiy xususiyatlari emas, balki tashqi sabablar: shaxslar birligining pasayishi, tartibsizlik, inson faoliyatining tartibga solinmaganligi oqibatida yuz beradi. Tadqiqotchi aynan shu inqiroz, iqtisodiy tushkunlik, siyosiy mojarolar, keskin ijtimoiy o'zgarishlar natijasida jamiyatning holati bilan o'z joniga qasd qilishning ommaviy o'sishini bog'laydi. "Ijtimoiy tartibsizlik paytida – bu og'riqli inqiroz tufayli jamiyat vaqtincha insonga kerakli ta'sir ko'rsatishga qodir emas yoki aksincha, to'satdan ijtimoiy o'zgarishlar ta'sirida bo'ladi" [4; 237-b.].

Demak, Dyurkgeym uchun anomiya va ijtimoiy tartibsizlik aslida bir xil narsadir. "Jamoaviy tartib"ning buzilishi, ijtimoiy rivojlanishning beqarorligi, me'yoriy tizimlarning yo'q qilinishi

insonlarni chalg'itib, ko'p jihatdan ijtimoiy og'ishlarning turli shakllari, xususan, jinoyatchilik darajasini oshirishga yordam beradi.

Dyurkgeymning ta'kidlashicha, ijtimoiy birdamlik va hamjihatlik mavjud bo'lgan jamiyatlarda jinoyatchilik darajasi ancha past bo'ladi. Jamiyatda hamjihatlik yo'q bo'lsa, anomiya rivojlanib, jinoyatchilik va boshqa barcha deviantlik turlari sezilarli darajada oshadi.

Shunday qilib, ijtimoiy rivojlanishning ma'lum davrlarida normativ tartibga solish kuchi yo'q bo'lganda yoki keskin pasayganda anomik vaziyat yuzaga keladi. Bunday hollarda, shaxslarni ijtimoiy jihatdan nomaqbul harakatlarni amalga oshirishdan saqlaydigan odatiy qoidalar naf bermasligi mumkin. Agar sinnomiya – normalar va qadriyatlarning mos kelish sharti bo'lsa, unda ularning tartibga solinmaganligi, me'yorda emaslik fenomeni anomiya hisoblanadi. Shuning uchun, keng ma'noda, *buzilgan jamiyatning holati sifatida anomiya – bu shaxslar va ijtimoiy guruhlarning xatti-harakatlarini me'yoriy tartibga solish bo'lib, ilgari qabul qilingan normalar, qonunlar, madaniy qadriyatlar yangilariga mos kelmasligiga yoki yangilari hali ham mavjud bo'lmaganligiga aytiladi.*

A.Gerri va A.Ketlening qarashlarini rivojlantirib, Dyurkgeym o'zining zamonaviy ijtimoiy sharoitida jinoyatchilik ijtimoiy hayotning odatiy xususiyati degan tezisni sotsiologik asoslaydi. Jamiyatni organ va funksiyalarning eng mukammal tizimi sifatida, organizm bilan o'xshashligiga asoslangan tahlilning funksionalistik istiqboli nuqtayi nazaridagi norma sifatida oladi. Bundan tashqari, jinoyatlar har doim barcha turdagi jamiyatlarda kuzatiladi, Dyurkgeymning: "Oddiy voqea-hodisalarning barcha belgilariga ega bo'lgan, boshqa yana shunday hodisa bo'lmaydi" – degan fikriga ko'ra, ular normallikning barcha belgilariga ega bo'ladi [5; 82-b.].

Dyurkgeym o'z xulosasining paradoksalligini tan olib, unga o'ziga xos dalil beradi: "Shaxslar o'rtacha jamoaviy turdan ozmi-ko'pmi farq qilmaydigan jamiyat bo'lishi mumkin emasligi sababli, bunday og'ishlar orasida jinoiy xarakterdagi og'ishlar ham bo'lishi muqarrar. Ular

bunday xarakterga ushbu harakatga xos bo'lgan har qanday fazilatlar tufayli emas, balki ushbu harakatga jamoaviy ongini beradigan ta'rif bilan bog'liq holda ega bo'ladilar. Agar ijtimoiy ong kuchayib ketsa, ushbu og'ishlarni bostirish uchun yetarli vakolatga ega bo'lsa, u yanada sezgir va talabchan bo'ladi. Energiya bilan eng kichik og'ishlarga qarshi turish, bundan oldin faqat katta qoida buzarlklarga nisbatan namoyon bo'lgan hamda bu ong ularga jinoyatlar ilgari sodir etilganidek jiddiy ahamiyat beradi. Boshqacha qilib aytganda, bu ularni jinoiy harakat deb belgilaydi. Shunday qilib, jinoyatchilik funksional zarur bo'lib; bu har qanday ijtimoiy hayotning asosiy shartlari bilan chambarchas bog'liq va shuning uchun u foydalidir, chunki uning bir qismi bo'lgan sharoitlar axloq va huquqning normal evolyutsiyasidan ajralmasdir [5; 82-b.].

Bu borada rus sotsiologi E.V.Osipova, Dyurkgeymning so'zlarini tahlil qilib, "Jamiyatga zarar yetkazadigan hamda jirkanchlikni keltirib chiqaradigan jinoyatlar va boshqa ijtimoiy kasalliklar odatiy holdir, chunki ular ma'lum ijtimoiy sharoitlarda ildiz otgan, foydali va zarur ijtimoiy munosabatlarni saqlab qolgan jarayonlardir" – deydi [6; 153-b.].

Dyurkgeym sotsiolog-funksionalist sifatida jinoyatchilikni ijtimoiy patologiyaaning bir shakli deb hisoblamaydi, chunki u ma'lum bir ijtimoiy funksiyani bajaradi va uni ijtimoiy hayotning asosiy shartlari bilan bog'laydi. Biroq, yuqori darajaga ega jinoyat, uning tadqiqotiga ko'ra, g'ayritabiiy va patologik shakllarga ega bo'lishi mumkin. Shuning uchun uning fikriga ko'ra, uni

nazorat qilish, o'sish va tuzilishidagi o'zgarishlarni cheklash mumkin va zarur, ammo uni butunlay bartaraf etish mumkin emas, ya'ni, jinoyatchilikka qarshi kurashda g'alaba qozonish mumkin emas. Tanqidiy fikr yuritganda: olimning anomiya nazariyasi XX asrning 70-yillarida amerikalik tadqiqotchilar J.Duglas, V.Poupa tomonidan ba'zi metodologik prinsiplari tanqid qilinadi va o'z joniga qasd qilish statistikasini shubha ostiga qo'yishga urinishadi.

Biroq, sotsiologning ilmiy tahlili va xulosalari mukammalligini hisobga olib: jamiyat haqiqatan ham jinoyatchilikning turli ko'rinishlarisiz, boshqa og'ishlarsiz, inqirozlarsiz, ijtimoiy tartibsizlikning turli shakllarisiz, xuddi biologik organizmlar kasalliklarsiz mavjud bo'lmaganidek darajada imkonsizdir.

Dyurkgeym anomiya nazariyasi zamonaviy jamiyatda ko'p narsani anglatadi va bugungi kunda nafaqat mahalliy sotsiologlar orasida, balki, ayniqsa, qimmatli, huquqshunos olimlar jamoasida ham juda mashhurdir.

Dyurkgeymning nazariy va uslubiy merosi bizga jinoyatchilikni butunlay bartaraf qilish, fohishabozlikni yengish, ichkilikbozlik va giyohvandlikdan xalos bo'lish g'oyalarining utopiyaligini sotsiologik jihatdan anglashga imkon beradi. Ushbu g'oyalarining ahamiyati shundaki, ular ijtimoiy va huquqiy profilaktika choralarining ustuvorligi, ijtimoiy nazoratning turli shakllarini izlash hamda qo'llash bo'yicha izchil va tizimli ishlarning ahamiyati to'g'risida juda muhim xulosa chiqarishga imkon beradi.

Foydalanilgan manbalar

1. Дюркгейм Э. Метод социологии. – Харьков, 1899.
2. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. – Одесса, 1900.
3. Дюркгейм Э. Самоубийство: Социологический этюд. – СПб., 1912.
4. Дюркгейм Э. Самоубийство: Социологический этюд / Пер. с франц. М.: Мысль, 1994.
5. Дюркгейм Э. Норма и патология // Рубеж: Альманах социальных исследований, 1992. – №2.
6. История социологии в Западной Европе и США: учебник для вузов / отв. ред. академик РАН Г.В.Осипов. – М.: «НОРМА-ИНФРА-М», 1999.